

**“O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasi tomonidan
2016 yilning I-choragi davomida bajarilgan ishlar to‘g‘risida
M A ’ L U M O T**

I. Davlat Dasturining bajarilishi

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Jamg‘armasi kengashining 2016 yil 29 yanvardagi №01-03/1-250-sonli yig‘ilish bayoniga ko‘ra Kompaniya tomonidan Davlat dasturi asosida Melioratsiya va boshqa suv xo‘jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan suv xo‘jaligi ekspluatatsiya va pudrat tashkilotlarini, shuningdek, suv iste’molchilarining faoliyatini qo‘llab quvvatlash borasida Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi buyurtmasiga ko‘ra Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2016 yilda jami qiymati 43,6 mlrd so‘mlik 140 dona zamonaviy texnika shundan, 60 dona zamonaviy ekskavator, 21 buldozer va 59 dona boshqa texnika va mexanizmlar xarid qilish rejalashtirilgan. 2015 yil oktyabr oyida o‘tkazilgan Toshkent halqaro yarmarka va kooperatsion birjada 2016 yil Davlat dasturida belgilangan texnikalarni xarid qilish bo‘yicha 12 turdagji jami qiymati 40,6 mlrd so‘mlik 125 dona texnikalarni mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Shuningdek, 2 dona yopiq gorizontal drenaj qurish agregatini xarid qilish bo‘yicha Italiyaning «Tesmes SpA» (Grassobbio, Bergamo) kompaniyasi bilan shartnomalar imzolandi hamda xarid qilinadigan texnika qiymatining 85 foizi miqdorida 2,35 mlrd so‘m mablag‘ Jamg‘arma tomonidan moliyalashtirib berili. Hozirda mablag‘ni konvertatsiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda 127 dona texnikani xarid qilish bo‘yicha texnikalar qiymatining 85 foizi miqdorida 36,8 mlrd. so‘m moliyalashtirish yuzasidan Jamg‘armaga berilgan buyurtmanomalarning 15,8 mlrd so‘mi moliyalashtirib berildi. 2016 yilning 1 aprel holatiga amalda 18 dona texnika xarid qilindi. Shu bilan birga, joriy yilda Kompaniya o‘z mablag‘lari hisobidan qiymati 3,5 mlrd so‘mlik 19 dona zamonaviy texnikalarni xarid qilish va lizing oluvchilarga yetkazib berish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunga amalda 7 dona texnika xarid qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2015 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor vazifalari to‘g‘risida”gi 2016 yil 16 yanvardagi 1- sonli bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida joriy yilda rejada belgilangan texnikalar xaridini shu yilning may oyiga qadar yakunlash xamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Melioratsiya Jamg‘armasini boshqarish departamenti va viloyatlar xokimliklari bilan birlgilikda lizing oluvchilar tomonidan lizing to‘lovlarini o‘z vaqtida qaytarilishi bo‘yicha tarmoq jadvali ishlab chiqildi va to‘lovlarini oymaoy o‘z vaqtida to‘lab borilishi nazoratga olindi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 3 apreldagi PQ-2158-sonli qarori ijrosi bo‘yicha Kompaniyada 2015-2020 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq tadbiq etish va rivojlantirish bo‘yicha dasturi ishlab chiqildi va vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, Kompaniya rasmiy veb-saytida amalga oshirilayotgan ishlar, tarkibiy va kadrlarga oid o‘zgarishlar, Faoliyatga doir qabul qilinayotgan Quror va Farmonlar, sohaga oid ilmiy yangiliklar va tavsiyalar doimiy ravishda yoritib borilishiga e’tibor qaratilmoqda. Meliorativ tadbirlar dasturi ijrosi yuzasidan berilayotgan Hukumat topshiriqlarining o‘z vaqtida bajarilishi xamda suv resurslaridan oqilona va tejamli foydalanish yuzasidan tashkil etilgan Vazirlar Mahkamasini ishchi guruhida Kompaniya xodimlari doimiy ishtirok etib, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Kompaniya faoliyatini keng targ‘ib etish maqsadida ommaviy axborot vositalarida xususan, joriy yilning mart oyida Xalq so‘zi gazetasida “Zamonaviy lizing xizmatlari” ruknida maqola chop etildi.

II. “O‘zmeliomashlizing” DLK ning moliyaviy-iqtisodiy holati.

Kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati o‘tgan davrlarga nisbatan yaxshilanib, hisobot sanasiga lizing operatsiyalari bo‘yicha aktivlar miqdori 133 423,0 mln so‘mni tashkil etmoqda. 2016 yilning 1 aprel holatiga lizing portfelida yetkazib berilgan texnikalar soni 1954 tani va portfeldagi umumiy lizing quyilmasi 328 609,0 mln so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati (62,7 mlrd so‘m) 124 foizni tashkil qildi. 2016 yil yanvar-mart oyi davomida lizing xizmatidan olingan daromad 972,6 mln so‘mni tashkil etadi. 2016 yilning I-choragi davomida jami 49 dona texnika lizing oluvchilarga yetkazib berilgan yoki ko‘rsatilgan xizmatlar xajmi 14 615,0 mln so‘mni tashkil etgan. Kompaniyaning 2016 yil 1 aprel holatiga olgan sof foydasi 875,3 mln so‘mni tashkil etadi.

II. Lizing oluvchi sub’ektlar tomonidan lizingg to‘lovlari to‘lab berilishi

Lizing oluvchilar tomonidan 2016 yilning yanvar-mart oylari davomida Kompaniya hisob raqamiga 9 059,8 mln. so‘m mablag‘, shu jumladan 2 545,2 mln. so‘m oldindan 15 % bo‘nak to‘lovlari va 6 514,6 mln. so‘m lizing to‘lovlari tushirilgan.

Lizing to‘lovlari bo‘yicha tushumlarning ortib borishiga qaramasdan, ayrim lizing oluvchi davlat unitar korxonalari, irrigatsiya tizim boshqarmalarining yetkazib berilgan texnikalar uchun hisoblangan lizing to‘lovlari bo‘yicha qarzdorliklari hamon saqlanib qolmoqda. Qarzdorliklarni uzish bo‘yicha Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, viloyat xokimliklari va irrigatsiya tizim havza boshqarmalariga bir necha bor yozma murojat qilinishiga qaramasdan lizing to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni qisqartirish borasida olib borilgan ishlar yetarli samara bermayapti. Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida lizing to‘lovlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikka yo‘l qo‘ygan 10 ta davlat unitar korxonalari va 6 ta suv xo‘jaligi foydalanish tashkilotlaridan mavjud qarzdorliklarini undirish uchun hujjatlar xo‘jalik sudlariga taqdim etildi. Ko‘rilayotgan barcha tadbirlarga qaramasdan, hisobot sanasiga lizing oluvchilarning Kompaniya oldidigi lizing to‘lovlari bo‘yicha qarzdorliklari 4 833,1 mln. so‘mni tashkil etdi, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 191,4 mln.sumga ortgan.

Xususan katta miqdordagi qazdorlik Jizzax viloyati bo‘yicha 888,1 mln. so‘m, Surxondaryo viloyati bo‘yicha 827,6 mln. so‘m, Toshkent viloyati bo‘yicha 717,6 mln. so‘m, Sirdaryo viloyati bo‘yicha 609,0 mln. so‘m, Surxondaryo viloyati bo‘yicha 577,1 mln. so‘mni tashkil etadi.

IV. Meliorativ texnikalarga servis xizmati ko‘rsatish.

“Meliomashlizingservis” sho‘ba korxonasi tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylari davomida lizingga berilgan texnikalarga 925,3 mln so‘mlik servis xizmatlari ko‘rsatildi. Texnikalardan oqilona va samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida texnika ishlab turgan joyni onlayn rejimida ko‘rsatib turuvchi GPS kurilmalari joriy yilning I-choragi davomida 42 dona texnikalarga o‘rnatalidi.